



SUGGESTIONS AND RECOMMENDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE

Madina Dadaboeva

student

Kokand University

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "Environmental consciousness", "environmental culture", "environmental policy", environmental safety, environmental education, "environmental attitude", "environmental ethics".

Abstract: The article examines the problems that arise in the process of forming environmental culture among young people and ways to solve them. At the same time, modern proposals and recommendations on this issue are given.

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR

Madina Dadaboyeva

talaba

Qo'qon universiteti

Qo'qon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "Ekologik ong", "ekologik madaniyat", "ekologik siyosat", ekologik xavfsizlik, ekologik ta'lim, "ekologik munosabat", "ekologik axloq".

Annotatsiya: Maqolada yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayoni paydo bo'ladigan muammolar va ularning yechimlari xususida so'z yuritiladi. Shu bilan birga masala bo'yicha zamonaviy taklif va tavsiyalar beriladi.

ПРЕДЛОЖЕНИЯ И РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РАЗВИТИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Мадина Дадабоева

студентка

Кокандский университет

Кокан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Экологическое сознание», «экологическая культура», «экологическая политика», экологическая безопасность, экологическое образование, «экологическое отношение», «экологическая этика».

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы, возникающие в процессе формирования экологической культуры у молодежи, и пути их решения. При этом даются современные предложения и рекомендации по данному вопросу.

KIRISH

Hozirgi vaqtga kelib mamlakatimiz shaharlarida yerdan unumli foydalanish ko'rsatkichlari past darajada saqlanib qolmoqda. Muhofaza zonalarini turli noto'g'ri va hisobga olinmagan qurilishlar bilan to'ldirilmoqda. Natijada loyihasi to'liq hisobga olinmagan qurilish ishlari uning ostida muhandislik kommunikatsiyalari joylashganligi munosabati bilan buzib tashlanmoqda. Bu esa turli darajadagi zararli oqibatlariga olib kelmoqda. Birinchidan, mablag' bekorga sarf bo'lsa, ikkinchidan, buzilgan bino ostidan chiqqan turli-tuman vositalar ekologiyaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Oqibatda hududda ayrim narsa-buyumlar chiqindi sifatida saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Bu masalaning yechimi sifatida aytish mumkinki, yerdan unumli foydalanish uchun hukumat qaror va loyihalarining qat'iyligini yanada oshirish muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarur.

METODLAR

1. *O'quv rejalariga ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan fanlarni kiritish choralarini ko'rish.*
2. *Ekologik ta'lim sohasiga doir tadqiqotlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.*
3. *Ushbu sohada hamkorlik va ilg'or tajribalarni almashishni amalga oshirish.*
4. *O'zaro tushunish va tinchlikni mustahkamlashning asosiy dastagi sifatida ekologik ta'limni xalqaro hamkorlikka integratsiya qilish va boshqalar.*

Maqolada analiz, sintez, content tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

“Tabiat bilan hazillashib bo'lmaydi. U hamisha haqqoniy, hamisha qattiqqo'l, hamisha jiddiy. U doimo haq, hatto va yanglishlarga esa odamlarning o'zlari sababchidir” [5; 168] - deb ta'kidlagan edi Gyote. Shu sababli, atrof - muhitni muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, hozirgi kunda butun insoniyat uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, atrof-muhit xavfsizligi hamisha asosiy masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

Hozirgi kunda bu kabi urbanistik muammolarni bartaraf etish uchun nima qilmoq kerak? Ekologik ta'lim, ekologik ong va ekologik madaniyati rivojlantirish zarur. Bunga xizmat qiladigan atrof-muhit falsafasi urbanizatsiyaning atrof-muhitga ta'sirini haqida ma'lumot beradi,

barqaror va ekologik toza shaharlarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu falsafiy omillar urbanizatsiya jarayonlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa-da, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar kabi boshqa omillar ham muhimdir. Bu jarayonda ekologik madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi kunda ekologik muammolarning bartaraf etishning bir necha yo'llari mavjud bo'lib, ulardan biri albatta ekologik madaniyatni yuksaltirish hisoblanadi. Ekologik madaniyat ekologik ta'lim vositasida mukammal bo'ladi. Ekologik ta'limni olish uchun avvalo ota bobolarimiz tomonidan bizga qoldirilgan pand nasihatlar va o'gitlar dastlabki asos vazifasini o'taydi. Shu bilan birga muqaddas dinimiz tomonidan belgilab berilgan amallarni og'ishmay bajarish zarur bo'ladi.

Aytish joizki ekologik ta'limni amalga oshirish uchun maktablarda dars jadvallariga ekologik axloq mavzusini qo'shish, oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga ekologik axloq maxsus kurslarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek ekologik madaniyatni yuksaltirish uchun targ'ibot ishlarini amalga oshirish bu bo'yicha alohida ko'rsatuvlar sonini oshirish, videoroliklar tayyorlash, radioeshittrishlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilarga tayanib aytganda fuqarolarda ekologik madaniyatni rivojlantirish zarur bo'ladi. Ekologik madaniyat tushunchasini tahlil qilishga harakat qilib ko'ramiz. Keyingi yillarda ijtimoiy hodisa sifatida: "ekologik munosabat", "ekologik ong", "ekologik madaniyat", "ekologik siyosat" kabi tushunchalarni tahlil etishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati umumfalsafiy, gnoseologik, metodologik, praksiologik masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu tushunchalarning mazmunidagi umumiylik ekologik faoliyatni konkret yo'nalishlarida tahlil qilish orqaligina insonning ijtimoiy-siyosiy hayot mavqeini mustahkamlash, faolligi va mas'uliyatini oshirish mumkinligini ko'rsatishdan iboratdir. [4; 32]

Yuqoridagi fikrlarga asoslansak, ilmiy tadqiqotlar qiymatini oshirish odamlarda mazkur muammoga nisbatan mas'uliyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ekologik madaniyat tushunchasiga falsafa qomusiy lug'atida quyidagicha ta'rif berilganligiga guvoh bo'lamiz. "Ekologik madaniyat - insonning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishga ongli ijodiy munosabati bo'lib, tabiiy qadriyatlarni kelajak avlodlarga bekamu-ko'st qoldirish mas'uliyati va burchini anglash. Insonlarning muayyan tabiiy-jug'rofiy yashash joylari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, e'tiqod shakllari, etnografik xususiyatlari bilan bog'liq milliy ekologik madaniyat vujudga kelgan va rivojlangan". [1; 416]

Yuqorida qayd etilgani kabi muammolarni bartaraf etish uchun avvalo, insonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish zarurligi aytib o'tildi. Fikrimizcha, undan keyin har soha bilan bog'liq

ishlarni amalga oshirish kerak. Jumladan, daraxtlarni kesib yuborish sohasida amaldagi qonunlar ustuvorligini ta'minlab qonun buzilishi hollariga nisbatan jazo choralari qo'llash muqarrarligini ta'minlash zarur. Suv bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun undan foydalanish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarni qaror toptirish zarur. Shuningdek, aholining bu boradagi savodxonligini oshirish va madaniyatini shakllantirishda tashviqot ishlarini kuchaytirish bilan birga joylarda ekologik jamoatchi inspektorlar faoliyatini takomillashtirish zarur va ayni paytda aholi gavjum joylarda axlat qutilarini ko'paytirish, ko'chaga chiqindi tashlagan fuqarolarga nisbatan katta miqdorda jarima ko'rinishda ma'muriy jazo qo'llash ham shubhasiz shahar va qishloqlarimiz tozaligini, soy va ariqlardan, kanallardan toza suv oqishini ta'minlashda amaliy yordam beradi. [3; 162-163]

Biz yuqorida aytib o'tgan havoning ifloslanishini oldini olish masalasidagi ekologik madaniyatni oshirish bo'yicha quyidagilarni taklif etamiz:

1. Imkoni boricha, uydan chiqmaslikka harakat qilish kerak;
2. Ko'chada bo'lganda, albatta, tibbiy niqob taqish va uni har bir soatda almashtirish lozim;
3. Nafas qaytishi, burun bitishi, aksa urish, tumov, ko'zlar qizarishi va qichishishi, tomoqda qattiq qichishish va yo'tal paydo bo'lganda zudlik bilan allergolog shifokorga murojaat qilish lozim;
4. Tuzli eritmada burun va tomoqni chayish, oynalarni yopiq holatda saqlash, oynalar oldida ho'l sochiqlarni yoyib qo'yish tavsiya etiladi. [7; 3]

Hozirgi vaqtda shaharlarda toza ichimlik suvi muammosining oldini olish uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, fuqarolarning suvdan foydalanish madaniyatini oshirishimiz, ularning tafakkurida isrof degan tushunchani to'g'ri singdirishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun quyidagi targ'ibot ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq:

1. Suvdan oqilona foydalanish – taraqqiyot uchun tashlangan qadam;
2. Ichimlik suvi – hayot manbai;
3. Suvni isrof qilish – hayotga bepisand qarashdir;
4. Suv - cheklangan eng zaruriy ne'mat singari shiorlarni yashash tamoyili darajasiga ko'tarishimiz zarur bo'ladi.

Transport vositalaridan chiqayotgan is gazlarining oldini olish shahar ekologiyasini asrab qolish uchun nimalar qilish darkor:

1. Birinchidan, transport vositalaridan chiqayotgan tutunlar uchun filtr o'rnatish maqsadga muvofiq;
2. Ikkinchidan, elektromobillardan foydalanishga o'tish yaxshi samara beradi;

3. Uchinchidan, shaharlarda haftada bir kun “avtomobilsiz kun” tadbirini o‘tkazishni an’anasini qat’iy belgilanishini amaliyotga keng joriy etish zarur.

4. To‘rtinchidan, jamoat joylarida fuqarolarni velosipeddan foydalanishga targ‘ib qilish va buning uchun velosiped yo‘laklari qurish zarur bo‘ladi. Bu sog‘liq va ekologiya uchun juda foydalidir.

Albatta, avtomobil yo‘li chetlariga maxsus velosiped uchun yo‘laklar ajratish oz bo‘lsa-da shahar havosining tozaligiga aholi tomonidan qo‘shilgan hissa bo‘lardi. Vaholanki velosipedni piyodalar yo‘lagida haydash piyodalarga halaqit bersa, avtomobil yo‘lida haydash hayot uchun xavflidir.

MUNOZARALAR

Umuman olganda aytish mumkinki ekologik muammolar butun dunyo mamlakatlarining yechimini kutayotgan muammolardan biridir. Shuning uchun ham bu muammo bilan jahon hamjamiyati hozirda jiddiy shug‘ullanmoqda. Fikrimizcha, ekologik madaniyatni rivojlantirish yuqoridagi kabi shahar muammolarini barataraf etishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotcha A. G‘ulomovning fikricha, “ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va mas’uliyatli yondashuvdir. Unda tabiat bilan inson o‘rtasidagi o‘zaro oqilona mas’uliyatli munosabat tarkib topadi”. [2; 16] Bizningcha esa, ekologik madaniyat tabiatga yetkazilgan zararning oldini olish va bartaraf etishda munosib ishtirok etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan iborat. Shunday ekan ekologik madaniyat qay yo‘llar bilan shakllantiriladi? Nazarimizda quyidagilar buning yechimlari bo‘la oladi:

- ekologiyani asrashning ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan beqiyos ilmiy merosini o‘rganishni davom ettirishimiz, ularni xalqimiz onggiga singdirish zamonaviy ilmiy yechimlarini tadqiq etgan holda yoshlarga o‘rgatish zarur;

- ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy merosda ko‘rsatilgan va muqaddas dinimiz belgilab bergan ekologik bilimlarni qat’iy o‘rganishimiz bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvini va boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan integratsiyalashish xususiyatlarini fuqarolarga tushuntirish;

- ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyat tomonidan berilayotgan takliflarni chuqur o‘rganish va ularning ma’naviy-axloqiy tamoyillari mos kelgan taqdirda jamiyatimiz uchun joriy etish va boshqalar.

Qayd etish joizki, ekologik madaniyatni rivojlantirish hozirgi vaqtda shakllanayotgan yangi fan – ijtimoiy ekologiya qonunlarini qamrab olgan ilmiy ijtimoiy taraqqiyot nazariyasiga

tayanadi. Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy taraqqiyotning turli – tuman ko'rsatkichlarini, ishlatilayotgan texnika va texnologiyalarni ekologik talablar nuqtai nazaridan taxlil qiladi. [6; 3] Bundan anglash mumkinki ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun qator fanlar ham xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, urbanizatsion taraqqiyot oldimizga chiqindidan unumli foydalanish va chiqindilarni o'z vaqtida samarali yo'q qilish vazifasini ham qo'yadi. Bu holat yosh olimlardan zamonaviy bilimlarni puxta egallash va soha bilan bog'liq so'nggi yangiliklarni sohaga targ'ib etishni nazarda tutadi. Bu o'z navbatida yosh kadrlarga soha bilan bog'liq fanni o'qitishda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni kasb malakasi sifatida shakllantirishni talab etadi. Urbanizatsion taraqqiyot barcha sohalar oldida qator dolzarb muammolarni keltirib chiqardi. Bu kabi muammolarni bartaraf etishga inson omili va uning intellektual salohiyati orqali erishish mumkin ekan bundan innovatsion g'oyalar asosida xalos bo'lish yo'llarini qo'llash taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu tariqa shahar ekologiyasini asrash va chiroyli turmush kechirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Falsafa qomusiy lug'at. – Toshkent: "Sharq", 2004. – 416 b.
2. G'ulomov A.B. Jadid mutafakkirlarining ekologik madaniyatga doir qarashlari: tarixiy–falsafiy tahlil. / Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro: BuxDU, 2021. – 16 b.
3. [Ibragimov N.I., Raximova L.S. Qattiq maishiy chindilar utilizatsiyasi. – T.: 2018. – 162-163 b.](#)
4. Mamashokirov S. Ekologik faollik va mas'uliyatni shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy omillarning roli. / Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. - Toshkent: O'zMU. – 1997. – 32 b.
5. Qoraboev S.B. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari. // – Academic research educational sciences, 2021. – Volume 2 (Issue 4) – P.168.
6. Salomova H.Yu. Ijtimoiy ekologiya asoslari. – Toshkent: "Fan va Texnologiya", 2004. – 3 b.
7. Toshkentda-chang-tozoni-kutilmoqda. <https://kun.uz/news/17.10.2022/3.b>.